

**Ulashov Aliboy Rashid o‘g‘li,
Toshkent moliya instituti o‘qituvchisi**

O‘ZBEKISTONDA XORIJY INVESTITSIYALAR ISHTIROKIDAGI KORXONALAR FAOLIYATINING O‘ZIGA XOS XUSUYATLARI

Annotatsiya. Tadqiqotning asosiy maqsadi O‘zbekistonda xorijy investitsiya ishtirokidagi korxonalar faoliyatini tadqiq etish, ularning o‘ziga xos jihatlarini o‘rganish, xorijy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni mamlakatimiz eksport salohiyatini oshirishdagi o‘rni va rolini ilmiy jihatdan chuqur o‘rganish va mavjud yutuq kamchiliklar haqida mulohaza va takliflar berishdan va shuningdek, ular faoliyatining milliy iqtisodiyotga ta’siri va kelajak kutilishi mumkin bo’lgan istiqbollarini o‘rganishdan iborat.

Kalit so‘zlar. Xorijy investitsiya, eksport salohiyati, itimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, korxonalarining o‘ziga xos xusuyatlari, sanoat ishlab chiqarish erkin iqtisodiy zonalar, investitsiyaviy muhit, chet el kapital, jahon bozorlari.

Annotation. The main purpose of the study is to research the activities of enterprises with foreign investment in Uzbekistan, to study their specific aspects, to scientifically study the role and role of enterprises with foreign investment in increasing the export potential of our country, and to comment on existing achievements and shortcomings. consists of making suggestions and also studying the impact of their activities on the national economy and future prospects.

Keywords. Foreign investment, export potential, socio-economic development, specific characteristics of enterprises, industrial production, free economic zones, investment environment, foreign capital, world markets.

Kirish

Mamlakatimiz iqtisodiyoti rivojlanishining zamonaviy tendensiyalaridan biri bu xorijy investityalarni iqtisodiyotimizga jalb etishdir. Investitsiya bu foyda olish maqsada birorbir iqtisodiyot tarmog’iga qo‘yiladigan sarmoyadir. O‘zaro mintaqaviy-iqtisodiy integratisya jarayonlari tobora jadallahib bormoqda va uning natijasi o’lar oqimini ham tezlashadi. Xorijy investitsiyalar mavjud lekin foydalanilmayotgan resurslarni ishga tushirish, aholi bandligini taminlash, iqtisodiy rivojlanish imkonini yaratadi.

Mamlakatimiz itimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadida oldimizda turgan vazifalardan biri bu xorijy investitsiyalarni iqtisodiyotimizga faol jalb qilishdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev takidlaganidek, investitsiya-bu iqtisodiyotning drayveri, yuragi hisoblanadi.¹ Xorijy investitsiya bilan birga turli soha va tarmoqlarga, hududlarga yangi texnologiyalar, ilg‘or tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib keladi, tadbirkorlik jadal rivojlanadi. Biz xorijiy

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil uchun mo‘ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasidan.

investitsiyalarni faol jalb qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish orqali iqtisodiyotimizni jadal rivojlantirishga erishish mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari, ularni tashkil etishning iqtisodiy samaradorligi ularning milliy iqtisodiyot tizimida tutgan o‘rni va roli, ushbu hududlarning milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalar jalb etish hamda eksport salohiyatini oshirishdagi ahamiyati ko‘plab mamlakatimiz va xorijiy iqtisodchi-olimlar tomonidan chuqur o‘rganilgan. Xusan, Avdokushin E.F., Aleshin V.A Belova G., Bikov A., Gasumyanova A., Danko T.P., Zimenkov R.I., Ignatov V., Karxova I.Yu., Kunakova L.A., Kuzmenko V.P., Kuznetsova L.I²va boshqalar ushbu sohada samarali tadqiqotlar olib borganlar.

Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar rivojlanishining ilmiy-nazariy asoslari, ularni barpo etish, xorijiy investitsiyalarni jalab etish masalalari bo‘yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi, O‘zbekistonda xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalarni eksport salohiyatini oshirish imkoniyatlari va istiqbollari, mamlakatimizda xorijiy investitsiyalar faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha respublikamiz olimlari., Axmedov T.M., Bekmuradov A.Sh., Vahobov A.V., Kattaev N.T., Mirzaalieva S., Rasulev A.F., Safarov N.CH., Tadjibaeva D.A., Xajibakiev SH.X., Shermuhammedov A³. va boshqalarning ilmiy ishlarida keng yoritilgan.

Yuqorida nomlari keltirilgan olimlarning ushbu sohani rivojlantirishga qo‘shgan hissalarini e’tirof etgan holda shuni qayd etish lozimki, ushbu olimlar asarlarida xorijiy

O‘zbekiston iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizasiyalash yo‘lida. Ekspress-prospekt. (Bekmurodov A.Sh., Berkinov B.B., Usmonov B.B., Hamidov O.M., G’afurov U.V. va Ne’matov I.U.) T.: Iqtisodiyot-2009.

Боди, Зви, Кейн, Алекс, Маркус, Алан. Принципы инвестиций, 4-е издание.: Пер. с англ. "Вильямс", 2008. — 984 с. Дамодаран А. Инвестиционная оценка: Инструменты и методы оценки любых активов:Пер.с англ.- 4-е изд.- М.:Альпина Бизнес Букс,2007. -1340 с.

Инвестиции: учеб. /А.Ю. Андрианов, СВ. Валдайцев, П.В. Воробьев и др. -2-е изд., перераб. и доп. - М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2008. - 584 с.

Шарп У., Александр Г., Бэйли Дж. Инвестиции: Пер. с англ. - М. ИНФРА-М, 2007. -1028 с. Внешнеэкономическая деятельность: Учебник. /[Б. М. Смитиенко, В. К. Поспелов.С. В. Карпова и др.]; под ред. Б. М. Смитиенко, В. К. Поспелова. - 4-е изд., перераб. и доп.- М.: «Академия», 2007. - 304 с. Н.Н.Расулов.Стимулирование привлечения иностранных инвестиций в экономику Узбекистана. -Т.: «ФАН», 2003. -165 с.

Игошин Н.В. Инвестиции, организация, управление, финансирование: Учебник / -3-е изд.-М.: «ЮНИТИ: ДАНА», 2005. - 448 с.

Дегтярёв О.И. Внешнеэкономическая деятельность: Учеб. пособие. /Дегтярёва О.И., Полянова Т.Н., Саркисов С.В. –М.: Дело, 2005. – 325 с.

Диденко Н. И. Основы внешнеэкономической деятельности в РФ. 2-е изд. –СПб.: Питер, 2004. – 286 с.

.O‘zbekiston iqtisodiyotini liberallashtirish yillarida 1-qism. Bekmurodov A., Boltabaev M., G’oyibnazarov B., Amanbaev M., Toshxo’jaev M. Makroiqtisodiy siyosat va iqtisodiy islohotlar. – Т.: TDIU, 2005.

O‘zbekiston iqtisodiyotini liberallashtirish yillarida 2-qism. Bekmurodov A., Hakimov R., Safarov B., Zaxidov G. Qishloq xo’jaligida iqtisodiy islohotlar va fermerlik harakati. – Т.: TDIU, 2005.

O‘zbekiston iqtisodiyotini liberallashtirish yillarida 3-qism. Bekmurodov A.SH., Sattorov S., To’raev J., Soliev K., Ro’ziev S. Kichik biznes va tadbirkorlik rivoji – davr talabi. - Т.: TDIU, 2005.

O‘zbekiston iqtisodiyotini liberallashtirish yillarida 4-qism Bekmurodov A., Tojiev R., Qurbonov X., Alimardonov M. Moliya va bank tizimidagi islohotlar samarasi. – Т.: TDIU, 2005. .O‘zbekiston iqtisodiyotini liberallashtirish yillarida 5-qism. Bekmurodov A., Tairov SH., Maxmudov E., Isakov M., To’raev N. Tashqi iqtisodiy siyosat: savdo va investitsiyalar oqimlari. – Т.: TDIU, 2005.

“Qo‘shma korxonalarni tashkil etishga investitsiyalarni kiritishning ustuvor yo‘nalishlari va vazifalari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Т.: TDIU, 200

investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotidagi roli hamda jahon tajribasidan O‘zbekistonda foydalanish yo‘nalishlari keng yoritilgan bo‘lsada, mamlakatimizda investitsiya faoliyati va ularni rivojlantirish yo‘llari yetarli darajada yoritilmagan. O‘zbekistonda xorijiy investorlarning investitsiya faoliyatini rivojlantirish masalalarining iqtisodiy adabiyotlarda yetarli darajada yoritilmaganligi va ushbu masalaning iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida dolzarbligi mazkur bitiruv malakaviy ishi mavzusining tanlanishiga asos bo‘ldi.

Tahlil va natijalar

O‘zbekistonda xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalarining o‘ziga xos xusuyatlaridan biri ularni qaysi tarmoqqa faoliyat olib borishi bilan bog’liqdir. 2021-yil 1-yanvar holatiga faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 7560 tani tashkil etdi. Bu ko‘rsatgich 2020-yilning shu davriga nisbatan 2043 taga yoki 37,0 % ga o‘sgan.

Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarining 4006 tasi qo‘shma, 3554 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to‘g‘ri keladi. O‘zbekiston sanoatining tarmoq tuzilmasida sezilarli sifat o‘zgarishlari ro‘y berdi. Buni quyidagi raqamlar ham tasdiqlaydi: iqtisodiy o‘sishning lokomotivi hisoblangan sanoatning ulushi 35 foizga yaqinni tashkil etadi, ayni paytda qishloq xo‘jaligining ulushi bosqichma-bosqich 18 foizgacha kamaydi, xizmatlar ulushi esa 33 foizdan 47 foizga ko‘tarildi. Bunday o‘zgarishlar jadal rivojlanuvchi iqtisodiyotlarga xosdir. O‘zbekistonda yaratilgan qulay ishbilarmonlik muhiti xorijiy tadbirkorlar va sarmoyalarni jalb etib kelmoqda. Bugungi kunda respublikamizda 90 dan ortiq mamlakatning xorijiy kapitali ishtirokidagi 7,5 mingdan ziyod korxona faoliyat yuritmoqda. Mamlakatimiz iqtisodiyotida har yili o‘zlashtirilayotgan kapital qo‘yilmalarning 20 foizini xorijiy investitsiyalar hamda kreditlar tashkil qiladi. Xorijiy kapitalning asosiy qismi sanoatga yo‘naltirilgan bo‘lib, ulardan sanaot tarmoqlari bo‘yicha neftni va gazni qazib olish va qayta ishlash, kimyo sanoati, qurilish mollarini ishlab chiqarish yuqori o‘rinni egallaydi. O‘zbekistonning sanoati diversifikatsiya qilinishi natijasida uning eksport tuzilmasi ham o‘zgarib bormoqda. Agar o‘tgan asrning 90-yillari boshida mamlakatimiz eksporti, asosan, paxtadan iborat bo‘lgan va uning ulushi eksport umumiy hajmining 60 foizini tashkil qilgan bo‘lsa, hozirgi paytda chetga chiqarilayotgan mahsulotlarning deyarli 80 foizi qishloq xo‘jaligi texnikasi, zamonaviy qurilish materiallari, tayyor to‘qimachilik buyumlari hamda poyabzal, kabel-o‘tkazgichlar singari qayta ishlashga asoslangan tarmoqlarning mahsulotlaridir.

2.1-jadval

Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar kesimidagi soni va ulushi

	Soni	Ulushi
O‘zbekiston Respublikasi	7560	100,0
Qoraqalpiston Respublikasi	121	1,6
viloyatlar:		
Andijon	172	3,1
Buxoro	91	1,6
Jizzax	83	1,5
Qashqadaryo	85	1,1
Navoiy	109	1,4
Namangan	107	2,0
Samarqand	396	5,2
Surxandaryo	57	1,0
Sirdaryo	89	1,5
Toshkent	851	11,3
Farg‘ona	205	3,6
Xorazm	71	0,9
Toshkent sh.	4728	62,5


Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistikasi qo‘mitasi, O‘zbekiston respublikasida korxonalar va tashkilotlarning demografiyasi 24.08.2021

Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalarining hududlar kesimi doirasida joyashuvini ko‘radigan bo‘lsak, ularning asosiy qismi Toshkent shaharda 4728 ta bo‘lib, respublikadagi jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soniga nisbatan ulushi 62,5%ni tashkil etadi. Toshkent shaharidan keyingi o‘rinda xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar soni bo‘yicha yetakchi o‘rinlarni Toshkent va Samarqand viloyatilari egallaydi Toshkent viloyatida 851 ta 11,3 foizni va Samarqand viloyatida 396 ta 5,2 foizni tashkil etadi. Bu o‘rinda shunday xulosaga kelish mumkinki, quyidagi uchala hudud respublikaning boshqa hududlariga nisbatan infaratuzilma bilan taminlanganlik darajasi mustaqillikning ilk yillaridan oq yuqori edi. Xorijiy investitsiyalarni jalg qilish bu mazkur hududning qanchalik infratuzilma obyektlari bilan taminlanganiga ham bog‘liq. Investorlar infara tuzilma bilan yaxshi taminlanmaga hududlarga investitsiya kiritishdan qochishadi. Investorlarni qiziqtiradigan muhim jihatlardan biri bu hududlarni transport salovhiyatidir. Chunki investorlar, xorijiy mutaxasislar, respublikaning poytaxtdan uzoq bo‘lgan hududlarida harakatlanishga qiynalishadi. Bu ham ularni uzoq rigionlarga investitsiyalarini yotqizish fikridan qaytarishi mumkin bo‘lgan jihatdir. Bu fikrni isboti sifatida quyidagi viloyatlarda xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalarни soni kam ekanligi ham misol bo‘la oladi. Eng kam xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar Xorazm viloyatida 71 ta (0,9 foiz), Qashqadaryoda 85 ta (1,1 foiz), Navoiy viloyatida 109 ta (1,4 foiz) hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi 121 tani (1,6 foiz) tashkil etgan. Xorazm va Qashqadaryo viloyatlatida aholi ishsizlikdarajasi yuqorili bois, bu viloyatlarda yirik investitsion loyihalarini amalga oshirishn taqazo qiladi. Bu mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalg etish borasida amalga oshirilishi lozim

bo‘lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.⁴

Hozirda jalb etilgan xorijiy investitsiyalar tuzilmasini tahlil etish shuni ko‘rsatmoqdaki, bunday investitsiyalarning katta qismi eksportga mo‘ljallangan tarmoqlarga – yoqilg‘i-energetika majmuasi, neft-kimyo, oltin qazib olish va paxtani qayta ishslash sanoatiga yoxud o‘z-o‘zini qoplash muddatlari qisqa bo‘lgan va ko‘p fond talab qilmaydigan yuqori rentabelli loyihalarga: savdo, telekommunikatsiya, umumiyligi ovqatlanish, yirik shaharlarda ofis va mehmonxona binolari qurish, oziq-ovqatsanoati va moliya xizmatiga yo‘naltirilmoqda

O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalarining o‘ziga xos va farqli jihatlaridan biri bu ularning iqtisodiy faoliyat turlari kesimi bilan bog‘liqidir. Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko‘rilsa, eng ko‘p sanoatda 2995 tani (39,6 foiz) sanoat tarmoqlari bo‘yicha qaralsa, eng ko‘p investitsiyalar neft va gazni qazib olish va qayta ishslash, mineral xomashyolarni qazib olishga yo‘nalgan, savdoda 1668 tani (22,0 foiz) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 1225 tani (16,2 foiz) tashkil qilgan. Eng kamlari esa sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishda 97 tani (1,3 foiz), axborot va aloqada 209 tani (2,8 foiz), tashish va saqlashda 214 tani (2,8 foiz) qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida 339 tani (4,5 foiz), yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda 325 tani (4,3 foiz) va qurilishda 488 tani (6,5 foiz) tashkil qilgan. Ko‘rinib turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to‘g‘ri keladi.



2.1-rasm. Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi (2021-yil, foizda)

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

⁴ <https://stat.uz/uz/statinfo?catid=0&id=2032>

Shuningdek, eng kam ulush esa sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to‘g‘ri keladi. O‘zbekistonning iqtisodiy taraqqiyotida sanoat ishlab chiqarishini mahalliylashtirish muhim o‘rin egallaydi. Dastlab mahalliylashtirish dasturi 2000 yili qabul qilingan edi. Dastur doirasida qiymati 5,5 milliard AQSH dollaridan ortiq bo‘lgan 2600 dan ziyod loyihalar amalga oshirildi. Mahalliylashtirilgan korxonalarda 5 ming turdan ortiq sanoat mahsulotini ishlab chiqarish o‘zlashtirildi, bu esa yiliga 7 milliard AQSH dollarilik mahsulot importining o‘rnini bosdi, deganidir. Faqat keyingi ikki yil ichida ishlab chiqarishni mahalliylashtirish hisobiga 97 guruuh tovarlarni import qilish butunlay to‘xtatildi, shuningdek, 306 turdagи mahsulotni chetdan keltirish 2 baravardan ziyod kamaydi.⁵

2021 yilning yanvar-dekabr oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 2385 tani tashkil qilgan. Bu ko‘rsatkich esa o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 1522 taga ko‘paygan.

Bunda, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 428 ta, Turkiya Respublikasi – 364 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 351 ta, Qozog‘iston Respublikasi – 246 ta, va Koreya Respublikasi – 161 ta korxonalar yangi ro‘yxatdan o‘tgan. Shuningdek, 2018-yil davomida Afg‘oniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo‘shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, asosan 728 tasi sanoat, 654 tasi savdo, 229 tasi qurilish, 190 tasi qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi va 297 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, ushbu korxonalarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog‘iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to‘g‘ri keladi. Bu o‘rinda shuni aytib o‘tmoxchimanki, Rossiya Federatsiyasi va Xitoy O‘zbekiston bozorini egallah va mamlakatda o‘z tasir doirasini kengaytirish va mustahkalash maqsadida ham ko‘p miqdordagi investitsiyalarni kiritmoqda. Respublikamizning uzoq xorij mamalakatlari orasida Koreya Respublikasi bilan o‘zora savdo-iqtisodiy hamkorligi uzoq yillik tarixga ega va sinovdan o‘tgan. Janubiy Koreya korxonalari O‘zbekistonda ko‘p yillarda buyon muvaffaqiyatli faoliyat olib borishmoqda. O‘zbekistonda Janubiy Koreyaning quyidagi korxonalari bor: Koreya milliy neft korporasiyasi, Eksimbanki, “Kogas”, “Lotte group”, “Samsung”, “Hyundai”, “Shindong resources” O‘zbekiston bilan Janubiy Koreya ishonchli va uzoq muddatli investisiyaviy hamkorlardir. Mamlakatimiz iqtisodiyotidagi Koreya investisiyalarining umumiylajmi hajmi 7 milliard dollardan oshgan. Mamlakatlar o‘rtasidagi kelishuvlar orasida “Angren” iqtisodiy zonasini “Inchxon” erkin iqtisodiy zonasini boshqaruviga berish, “Bo‘stonliq-farm” hududida eng zarur dori vositalari ishlab chiqarish bo‘yicha kelishuvlar alohida e’tiborlidir.⁶

Yana bir O‘zbekistonda xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalarning o‘ziga

⁵<http://mineconomy.uz/uz/node/1234>

⁶Manba: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining sayti

xos xususiyati bu ularni EIH va KSZ larida tashkil etilganidir. Xorijiy investorlar uchun yaratilgan qulay biznes muhiti, keng huquqiy kafolat va imtiyozlar tizimi, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni rag‘batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasi mamlakatimiz iqtisodiyotiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimini tubdan ko‘paytirish imkonini berdi. Natijada 2020-yilda o‘zlashtirilgan umumiy kapital qo‘yilmalar hajmining 3 milliard dollardan ortig‘ini xorijiy investitsiyalar tashkil etdi. Shuning 72 foizdan ziyodi yoki 2 milliard 200 million dollar ni to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalardir. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni samarali jalb etish, ishlab chiqarish korxonalarini modernizatsiya qilish va yangilash, zamонавиу innovatsiyalarga asoslangan va yuksak samarali texnologiyalarni joriy etishda zarur imtiyozlarga ega bo‘lgan maxsus industrial zonalar tashkil etilmoqda.

Qayd etish joizki, mustaqillik-yillarida O‘zbekistonda qulay investitsiyaviy muhit shakllantirildi, xorijiy investorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha qonun yo‘li bilan keng ko‘lamdag i mtiyozlar, afzalliliklar va kafolatlar tizimi belgilandi. Shunday tartib belgilanganki, unga ko‘ra EIZ da ro‘yxatga olingan xo‘jalik yurituvchi sub‘yektlar EIZ faoliyat ko‘rsatadigan butun muddatga eksportga yo‘naltirilgan mahsulot ishlab chiqarish maqsadida mamlakatga olib kelinayotgan asbob-uskunalar, shuningdek, xom ashyo, materiallar va butlovchi qismlar bojxona to‘lovlardan (bojxona rasmiylashtiruvi uchun yig‘imlardan tashqari) ozod qilingan. Jahon taribasi mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish va sanoat tarmoqlarini modifikatsiya qilish, ko‘p jihat investitsiyalarni jalb etilishiga bo‘liq. Xorijiy investorlarni mamlaktga qiziqshini uyg‘otish maqsadida erkin iqtisodiy hududlar va sanoat zonalari barpo etiladi. Ularning afzallik jihatlari shundaki bunday hududlarda davlat xorijiy investor uchun bir qator imtiyozlar joriy qiladi. Ular bojxona, soliq, xirjiy investorlar foaliyatini huquqiy bazasini aratish bilan bog‘liq imtiyoz va preferensiyalardir.

Bugungi kunda respublikamizning 10 hududida 14ta erkin iqtisodiy zonalar faoliyat yuritmoqda. Hozirda bu zonalarda 62 loyiha amalga oshirilgan, 87 loyiha bo‘yicha ishlar davom etmoqda. Mamlakatimizda qabul qilingan bir necha me’yoriy hujjatlar erkin iqtisodiy zonalarning samarali faoliyat yuritishiga yordam bermoqda. Prezidentimizning 2020-yil 26-oktabrdagi 4853-sonli farmonining 3-bandiga ko‘ra, erkin iqtisodiy zona ishtirokchilari o‘z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun chetdan keltiriladigan asbob-uskunalar, xom ashyo, materiallar bojxona to‘lovidan ozod etildi. Shuningdek, erkin iqtisodiy zonalarni eksportga yo‘naltiriladigan mahsulotlar ishlab chiqarish uchun olib kelinadigan xom ashyo, material va butlovchi buyumlar uchun bojxona to‘lovlari to‘lashdan (bojxona rasmiylashtiruvi yig‘imlardan tashqari) ozod etish ko‘zda tutilgan. 2017 yilning o‘tgan 9 oyi davomida EIZlar ishtirokchilariga bojxona to‘lovlardan jami 260,9 mlrd. so‘m miqdoridagi imtiyozlar berildi.

Xorijiy investorlarga investitsiyalar hajmiga qarab imtiyozlar 3 yildan 10 yil muddatgacha beriladi. Jumladan, 300 ming AQSh dollaridan 3 million AQSh dollarigacha hajmdagi investitsiyalar - 3 yil muddatga, 3 million AQSh dollaridan 5 million AQSh dollarigacha hajmdagi investitsiyalar - 5 yil muddatga, 5 million AQSh dollaridan 10 million AQSh dollarigacha hajmdagi investitsiyalar - 7 yil muddatga, 10

million va undan ko‘p AQSh dollari hajmidagi investitsiyalar - 10 yil muddatga beriladi.

EIHLarning mamlakat iqtisodiyotida muhim rol o‘ynashini hisobga olgan holda O‘zbekistonda dastlab 1996-yilda “Erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi. Unga ko‘ra erkin iqtisodiy zona – “mintaqani jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun mamlakat va chet el kapitalini, istiqbolli texnologiya va boshqaruv tajribasini jalg etish maqsadida tuziladigan, aniq belgilangan ma’muriy chegaralari va alohida huquqiy tartiboti bo‘lgan maxsus ajratilgan zonadir”⁷. Mamlakatimizda “Navoiy”, “Angren” va “Jizzax” erkin-iqtisodiy zonalaridan so‘ng mamlakatimiz prezidenti Sh. Mirziyoyev tashabbusi bilan yana to‘rtta “Urgut”, “G‘ijduvon”, “Qo‘qon” hamda “Hazorasp” erkin iqtisodiy zonalari (EIZ) tashkil e’tildi va faoliyat ko‘rsatmoqda. Mazkur EIZlarda ishlab chiqaruvchilarga keng va qulay imkoniyatlar yaratilgan, bugungi kunga kelib mamlakatimizda EIZlar va kichik sanoat zonalari soni 96 taga yetdi. Yaqin kelajakda ular soni 112 taga yetishi kutilmoqda.

Navoiy erkin industrial-iqtisodiy zonasasi – jahon standartlariga javob beradigan va jahon bozorlarida talab qilinadigan mahsulot ishlab chiqarishni ta’minlaydigan, zamонави yuqori texnologiyaga asoslangan ishlab chiqarishni tashkil etish uchun xorijiy investitsiyalarni, birinchi galda to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalg etish bo‘yicha qulay shart-sharoitlar yaratish, shuningdek Navoiy viloyatining sanoat salohiyatini, ishlab chiqarish, transport-tranzit va ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 3 dekabrda “Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori asosida tashkil etilgan. Navoiy erkin industrial-iqtisodiy zona hududida xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatining asosiy yo‘nalishi – zamонави xorijiy yuqori unumli asbob-uskunalar va texnika, texnologik liniyalar va modullar, innovasiya texnologiyalarini joriy etish hisobiga yuqori texnologiyali, jahon bozorlarida raqobatbardosh mahsulotlarni keng ko‘lamda ishlab chiqarishdan iborat.

Yuqorida mamlakat iqtisodiyotini ruvojlantirish maqsadida olib borilayotgan chora tadbirlar doirasida iqtisodiy rayonlarda keng ko‘lamli ishlar tashkil qilinmoqda. Buxoro, Navoiy, Namangan viloyatlaridagi hamda Toshkent shahri KSZlari kiritilmagan holda respublikadagi 86 ta kichik sanoat zonalarining umumiyl maydoni 602,36 hektarni tashkil qilgan holda, har bir kichik sanoat zonasiga o‘rtacha hisobda 7 hektarni tashkil etadi.

⁷ O‘zbekiston Respublikasining 1996 yil 25 apreldagi «Erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida»gi Qonuni


2-jadval

O‘zbekiston Respublikasi hududlarida tashkil qilingan kichik sanoat zonalarini soni

t/r	Ma’muriy birlik nomi	KSZlari soni
1	Qoraqalpog’iston Respublikasi	7
2	Andijon viloyati	4
3	Buxoro viloyati	7
4	Farg’ona viloyati	6
5	Jizzax viloyati	5
6	Navoiy viloyati	10
7	Namangan viloyati	2
8	Namangan viloyati	10
9	Samarqand viloyati	16
10	Samarqand viloyati	3
11	Surxondaryo viloyati	10
12	Toshkent viloyati	19
13	Xorazm viloyati	5
14	Toshkent shahri	8
Respublika bo‘yicha jami		112

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy veb-sayti www.stat.uz ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Mamlakatimizda bugungi kunga kelib, jami kichik sanoat zonalario soni 112 taga yetdi (2-jadval), ushbu tashkil e’tilayotgan KSZlar har bir hududning iqtisodiy-geografik imkoniyotlaridan kelib choiqsan xolda tashkil e’tilmoqda. Bu mamlakatimiz prezidenti yurtimizda tashkil e’tilgan yirik sanoat zonalariga jiddiy e’tibor qaratgan xolda, «Navoiy» EIZsi faoliyatini tezkor boshqarish Direktsiya tomonidan amalga oshirilishi belgilangani bois, qonunning 20-moddasiga ham tegishli o‘zgartishlar kiritildi. Bu EIZ faoliyatini muvofiqlashtirish davlat organlari vakillaridan tashkil etiladigan va shaxsiy tarkibini Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan Ma’muriy kengash tomonidan amalga oshirilishi belgilangani haqidagi norma bo‘lib, qonunda EIZning Ma’muriy kengashi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tuzilishi belgilab qo‘yildi. Shuningdek, mazkur Farmonda belgilangan EIZlarni tashkil etish va faoliyat ko‘rsatish tajribasi talablariga qonunning “Erkin iqtisodiy zona hududida xo‘jalik faoliyati qatnashchilarini ro‘yxatdan o‘tkazish” nomli 25-moddasi qoidalarini muvofiqlashtirish hamda qonunchilik hujjatlarini bir xil talqin qilishni ta’minlash maqsadida mazkur moddaga ham bir qator aniqliklar kiritilganini ta’kidlash joiz.



2-rasm. O‘zbekistonda hududlar bo‘yicha 2021-yilning 2-choragida tashkil etilgan jami kichik sanoat zonalari soni

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy veb-sayti www.stat.uz ma’lumotlari asosida muallif tamonidan tuzildi.

Mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, hududlar farovonligi va aholi hayot darajasini oshirishga qaratilgan keng ko‘lamli chora-tadbirlar belgilangan. Ularni samarali amalga oshirish maqsadida davlatimiz rahbarining farmonlariga muvofiq, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi hamda Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi tashkil etildi. Hududlar va tarmoqlarni kompleks rivojlantirish, ishlab chiqarish kuchlarini mutanosib joylashtirish Iqtisodiyot va sanoat vazirligining, tarmoq va hududiy investitsiya dasturlari ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini ta’minlash, korxona va tashkilotlarning eksport faoliyatini muvofiqlashtirish Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligining asosiy vazifalari hisoblanadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy holati nisbatan orqada bo‘lgan tumanlarda kooperatsiya asosida kichik sanoat zonalari tashkil etib, ularda to‘qimachilik, ko‘nchilik, meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash va saqlash bo‘yicha loyihalarni joylashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tumanlarda ishlab chiqarish va transport infratuzilmalarini rivojlantirishga qaratilgan dastur qabul qilish ularning iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega.

Davlatimiz rahbarining 2020-yil 30-martdagi qaroriga muvofiq “Yangiyer” kichik sanoat zonasasi tashkil etildi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad shahar sanoati salohiyatini rivojlantirish, kichik tadbirdorlik subyektlari faoliyatini rag‘batlantirish, zamnaviy ishlab chiqarishni tashkil qilishga investitsiyalarni keng jalg etish hamda ichki va tashqi bozor uchun raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish uchun qulay shart-sharoit yaratishdir. Ushbu sanoat zonasida 2020-2021-yillarga mo‘ljallangan qiymati salkam 106 million dollar bo‘lgan 125 loyihani amalga oshirish rejaga kiritildi. Buning samarasida viloyatda to‘qimachilik, charm-poyabzal, kimyo, oziq-ovqat, elektrotexnika sanoati, qurilish materiallari, meva-sabzavotni chuqr qayta ishlash va boshqa yo‘nalishlarda yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarish yo‘lga

qo‘yiladi. 3 ming 200 dan ziyod ish o‘rni yaratiladi. Mazkur kichik sanoat zonasini uchun 537 gektardan ko‘proq yer maydoni ajratilib (bu jihatdan u mamlakatimizdagi eng katta KSZ bo‘lgan), uni yo‘l- transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmalari bilan ta’minalash, ishlab chiqarish quvvatlarini joylashtirish yuzasidan izchil ishlar amalga oshirilgandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning qarori bilan 2018 yil 12 aprel sanasida Yangiyer kichik sanoat zonasini negizida “Sirdaryo” erkin iqtisodiy zonasini tashkil qilindi.

Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonidagi 14 ta kichik sanoat zonasining umumiyligi yer maydoni 220,7 gektarni, yoki respublikadagi kichik sanoat zonalari umumiyligi yer maydoning 36,6 % ni tashkil qilsa, Janubiy iqtisodiy rayonidagi 20 ta kichik sanoat zonasining umumiyligi maydoni 84,9 gektarni, yoki respublikadagi kichik sanoat zonalari umumiyligi yer maydoning 14,1 % ni tashkil qildi.

O‘zbekistonda yoqilg‘i energetika zaxiralari boy davlat bo‘lganligi sababli, kiritilayotgan investitsiyalarniing asosiy qismi yoqilg‘i-energetika sohasiga to‘g‘ri keladi. Xususan, 2010-yilgacha bo‘lgan davrda energetika sohasiga jalb etilgan xorijiy investitsiyalar hami 2,28 mlrd AQSh dollaridan oshdi va 26ta loyihaning 22 tasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar orqali amalga oshirildi. 2021 yilda jalb qilingan to‘g‘ridan – to‘g‘ri investitsiyalar miqdori 2,7 milliard dollarni tashkil qilgan edi. Prezident Shavkat Mirziyoyev qarori bilan tasdiqlangan 2017-yil investitsiya dasturiga ko‘ra, chet el kreditlari hisobiga hukumat kafolati bilan 79 loyiha bo‘yicha 1,854 milliard dollar, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar evaziga 120 loyiha asosida 2,65 milliard dollar o‘zlashtirildi.

Xorijiy investitsiyalarning eng katta qismi (37 loyiha bo‘yicha 2,47 milliard dollar) yoqilg‘i-energetika tarmog‘iga to‘g‘ri keldi. Ulardan chet el kompaniyalari to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalari hisobiga neft-gaz sohasiga 20 loyiha doirasida 1,97 milliard dollardan ortiq xorijiy investitsiya kiritildi.

Jumladan, Rossiyaning “Lukoil” kompaniyasi 2020-yilda umumiyligi qiymati 8 milliard dollardan oshiq bo‘lgan ikki kelishuv bo‘yicha 1,217 milliard dollar investitsiya qildi. Gazprom International sho‘ba tizimi bo‘lgan Gas Project Development Central Asia Ustyurt mintaqasi va Surxondaryo viloyatida 1,3 milliard dollarlik ikki loyihami amalga oshiradi. Energetika tarmog‘ida xorijiy kreditlar hisobiga 17 loyiha asosida 506,7 million dollar o‘zlashtiriladi. Mitsubishi Corporation va Mitsubishi Hitachi Power Systems (Yaponiya) Namangan viloyatining To‘raqo‘rg‘on tumanida quvvati 900 megavatt bo‘lgan issiqlik elektr stansiyasi qurilishi va Navoiy IES uchun 450 megavattli bug‘-gaz qurilmasi o‘rnatishga ishlari amalga oshirdi. Xitoyning Zhuhai Singyes Green Building Technology kompaniyasi Samarqand viloyatida quyosh elektr stansiyasi qurib tugatdi.

2019-yil yakunlari bo‘yicha O‘zbekistonga jalb etilgan xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmi 11,3 foizga ko‘paydi va 3,7 milliard dollardan oshdi. 2020 yilda 17146,5 mlrd. so‘m (dollar ekvivalentida 3348,2 mln. AQSh dollari) yoki o‘tgan yilga nisbatan 134,9 % asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar o‘zlashtirildi hamda uning jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 25,1 %ni tashkil etdi. Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlarning YaIMdag‘i ulushi 2020 yilda 6,7 %ni tashkil etib, o‘tgan yildagi ko‘ratkichga nisbatan 1,4 % punktga ko‘paydi.

Xorijiy investorlarni etiborini tortadigan jihatlardan biri bu mamlakating xalqaro reyting va indekslarda egallagan o‘rnidir. O‘tgan yillar davomida O‘zbekiston ham bu xalqaro ko‘rsatgichlardagi o‘rni yaxshilanib bormoqda.

2-jadval

O‘zbekistonning xalqaro reyting va indekslardagi o‘rni

t/r	Reyting yoki ko‘rsatgich nomi	O‘zbekistonning tutgan o‘rni	Qatnashgan mamlakatlar soni
1.	Biznes yuritish osonligi reytingi	74	
2.	Poraxo‘rlikka munosabat indeksi	157	-
3.	Iqtisodiy erkinlik indeksi	157	-
4.	Ekologik samaradorlik indeksi	136	-
5.	Iqtisodiy bilimlar indeksi	105	146
6.	Dunyo mamlakatlarining ilmiy-tadqiqot faolligi darajasiga ko‘ra reytingi	82	195
7.	AKT rivojlanishi indeksi	95	192

Manba: Inves.gov.uz sayti ma’lumotlar asosida tayyorlandi

Doing Business — mamlakatlar investitsiyaviy iqlim holatini tavsiflovchi eng ommaviy reytinglardan biri. 2021-yilda O‘zbekistonga 74-o‘rin berilgan edi. 2012 yilga taqqoslaganda O‘zbekiston bu reytingda 92 pozitsiyaga ko‘tarildi. Mamlakatga iqtisodiy rivojlanishga tasir etivchi omillarda bir mamlakadagi koruptsiya; ashhganlik darajasidir. Poraxo‘rlik tarqalishini qabul qilishning subyektiv darajasi. O‘zbekiston joriy yil yakunlariga ko‘ra poraxo‘rlikka munosabat indeksida 157-nchi o‘rinni egallagan. Qo‘sni davlatlar orasidag eng yuqori ko‘rsatgichdir. Ekologik samaradorlik indeksi (The Environmental Performance Index) – Yel universiteti qoshidagi Ekologik siyosat va huquq markazining aralash ko‘rsatkichisi bo‘lib, u mamlakat yutuqlarini ekologiya va tabiiy resurslarni boshqarish nuqtai nazaridan o‘lchaydi. 2021 yilgi reyting yakunlariga ko‘ra O‘zbekiston 136-o‘rinni egalladi. Bu ko‘rsatgichning e’tiborliligining sababi rivojlangan mamlakatlari o‘zları ichi atrof muhitga zararli ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlanayotgan mamlakatlarga ko‘chrishga harakat qiladi.

Iqtisodiy bilimlar indeksi – bu iqtisodiy rivojlanishning bilimga asoslangan rivojlanish darajasini tavsiflovchi kompleks ko‘rsatkich. Ushbu indeks davlatlar tomonidan siyosatlaridagi muammoli jihatlarni tahlil qilish va mamlakatlarning bilimga asoslangan rivojlanish modeliga o‘tishiga tayyorligini o‘lchash uchun qo‘llanilishi ko‘zda tutilgan. Joriy yilda O‘zbekiston dunyoning 146 mamlakati orasida 105 o‘rinni egalladi. Dunyo mamlakatlari ilmiy-tadqiqot faolligi ko‘rsatkichi har yili AQSH ning “Science and Engineering Indicators” deb nomlanuvchi Milliy ilmiy fondining maxsus hisobotida chop qilinadi. 2020 yilda O‘zbekiston dunyoning 195 mamlakati o‘rtasida 82-o‘rinni egalladi. Indeks 2007 yilda Xalqaro elektr-aloqa ittifoqi tomonidan AKT rivojlanishini baholashda foydalaniladigan 11 ko‘rsatkich asosida amalga oshiriladi. Indeks ushbu ko‘rsatkichlarni yagona mezonga birlashtiradi, va undan dunyo mamlakatlarning AKT rivojlanishi borasidagi yutuqlarini taqqoslashga yo‘naltiriladi, ayni paytda global, mintaqaviy va milliy darajalarda qiyosiy tahlilni amalga oshirish vositasi sifatida foydalanilishi mumkin. 2020 yilda ushbu indeks

bo‘yicha O‘zbekiston 95-o‘rinni egalladi.

Xulosa va takliflar

O‘zbekistonda xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalarining o‘ziga xos xusuyatlaridan biri ularni qaysi tarmoqqa faoliyat olib borishi bilan bog’liqdir. 2020-yil 1-yanvar holatiga faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 7560 tani tashkil etdi. Bu ko‘rsatgich 2021-yilning shu davriga nisbatan 2043 taga yoki 37,0 % ga o‘sigan. Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarning 4006 tasi qo‘shma, 3554 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to‘g‘ri keladi. O‘zbekiston sanoatining tarmoq tuzilmasida sezilarli sifat o‘zgarishlari ro‘y berdi. Buni quyidagi raqamlar ham tasdiqlaydi: iqtisodiy o‘sishning lokomotivi hisoblangan sanoatning ulushi 35 foizga yaqinna tashkil etadi, ayni paytda qishloq xo‘jaligining ulushi bosqichma-bosqich 18 foizgacha kamaydi, xizmatlar ulushi esa 33 foizdan 47 foizga ko‘tarildi. Bunday o‘zgarishlar jadal rivojlanuvchi iqtisodiyotlarga xosdir. O‘zbekistonda yaratilgan qulay ishbilarmonlik muhiti xorijiy tadbirkorlar va sarmoyalarni jalb etib kelmoqda. Bugungi kunda respublikamizda 90 dan ortiq mamlakatning xorijiy kapitali ishtirokidagi 7,5 mingdan ziyod korxona faoliyat yuritmoqda. Mamlakatimiz iqtisodiyotida har yili o‘zlashtirilayotgan kapital qo‘yilmalarning 20 foizini xorijiy investitsiyalar hamda kreditlar tashkil qiladi. Xorijiy kapitalning asosiy qismi sanoatga yo‘naltirilgan bo‘lib, ulardan sanaot tarmoqlari bo‘yicha neftni va gazni qazib olish va qayta ishlash, kimyo sanoati, qurilish mollarini ishlab chiqarish yuqori o‘rinni egallaydi. Bugungi kunda mamlakatimizda 14 ta erkin iqtisodiy zona faoliyat yuritmoqda. «Navoiy», «Angren», «Jizzax», «Urgut», «G‘ijduvon», «Qo‘qon» va «Hazorasp» erkin iqtisodiy zonalarida umumiy qiymati 486 million dollarga teng 62 loyiha amalga oshirilgan, 4 ming 600 dan ortiq ish o‘rni yaratilgan. Farmatsevtika sohasiga ixtisoslashgan «Nukus-farm», «Zomin-farm», «Kosonsoy-farm», «Sirdaryo-farm», «Boysun-farm», «Bo‘stonliq-farm», «Parkent-farm» singari 7 yangi erkin iqtisodiy zonani rivojlantirish bo‘yicha izchil ishlar olib borilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси // «Халқ сўзи», 2019 йил, 29 декабрь. № 271–272 (7229–7230).
2. Вахабов А.В., Хажибакиев Ш.Х., Мўминов Н.Г. Хорижий инвестициялар. Ўкув қўлланма. / и.ф.д. А.В.Вахабовнинг умумий таҳрири остида. – Т.: “Молия”, 2010. – 328 б.
3. Тўхлиев Н. Осиё тараққиёт моделлари /Н.Тўхлиев.– Тошкент: “Ўзбекистон”, 2015. – 176 б.
4. То‘xliyev N., Xolmatov N., Ermamatov Sh., Haqberdiyev Q. O‘zbekiston iqtisodiyoti. Darslik. – Т.: “O‘zbekiston” NMIU, 2018. – 488 b.
5. Васильев Л.Е. ACEAH в начале XXI века. Актуальные проблемы и перспективы. – М. : ИД «ФОРУМ», 2010. – 368 с.

6. Гончаренко Л.П., Арутюнов Ю.А. Инновационная политика. Учебник. – М.: КНОРУС, 2011. – 350 с.
7. Доклад о мировых инвестициях, 2018. Инвестиции и цифровая экономика. – Женева: Организация Объединенных Наций, 2018. – 42 с.
8. www.imf.org
9. www.stat.uz
10. www.worldbank.org